

## XALQ DOSTONLARIDAGI TOG‘ OBRAZINING BADIY TALQINI

*Atajonova Shohista Soatboyevna - Magistr*

**Annatsiya:** Bu maqolada folklorshunoslikda ko‘p uchraydigan tog‘ obrazi, uning o‘zbek xalq dostonlarida serqatlam ma‘no tashishi va bu obrazning ahamiyati misollar yordamida tahlil qilingan.

**Annotation:** This article analyzes the image of the mountain, which is often found in folklore, its multi-layered meaning in Uzbek folk epics, and the importance of this image using examples.

**Аннотация:** В данной статье на примерах анализируется часто встречающийся в фольклоре образ горы, его многослойное значение в узбекских народных эпосах, а также значение этого образа.

**Kalit so‘zlar:** folklor, xalq dostonlari, tog‘ obrazi, mifologiya, mifologik obraz.

**Key words:** folklore, folk epics, image of the mountain, mythology, mythological image.

**Ключевые слова:** фольклор, народный эпос, образ горы, мифология, мифологический образ.

O‘zbek xalqi o‘zining g‘oyat qadimiy madaniyati va serqirra ijodiy salohiyati bilan jahon tamadduni taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shdi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov haqli ravishda yozganidek: “Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo‘lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san‘at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me‘morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma‘naviy boyligimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo‘lgan xalq dunyoda kamdan-kam topiladi”[1, B.-30]. Darhaqiqat, o‘zbek xalqi juda qadimiy madaniyat va tafakkur durdonalariga ega. Avloddan avlodga og‘zaki o‘tib kelayotgan bu durdonalar orasida xalq dostonlari milliy ma‘naviyatimizning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu bois, mustaqillik yillarida folklorga, xususan, xalq dostonlariga, baxshi-shoirlarimiz ijodiga e‘tibor yanada ortdi. Ayniqsa, tog‘ obrazi, uning, xususan, eposga ko‘chishi, serqatlam semantik ko‘lam hosil etishi va obrazning bugungi kun san‘ati va adabiyotida muhim o‘rin tutishiga alohida e‘tibor berilmoqda. Shu bilan birgalikda xalq dostonlaridagi tog‘obrazi jahon dostonchiligida ham keng ko‘lamda o‘rganilmoqda. Tog‘ obrazining jahoniy tadqiqi uning tub ildizlari insoniyat tafakkuri taraqqiyotining ibtidosi bilan bog‘liq rivoj topganligini, dunyo xalqlari mifologiyasi va folklori uchun umumiy xususiyatlarga, o‘zaro uyg‘un ma‘nolarga egaligini ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda

o‘zbek xalq dostonlaridagi tog‘ obrazining tarixiy-mifologik asoslari, xalq marosimlari, urf-odatlarida tutgan o‘rni va epos tarkibidagi badiiy-estetik vazifasi hamda obrazning poetik tabiatini aniqlash, shubhasiz, muhim ahamiyatga ega. Tog‘ obrazi va u bilan bog‘liq barqaror she‘riy qaytariqlarning ma‘no qo‘lamini aniqlash doston poetikasi tadqiqini yanada chuqurlashtiradi, dostonlarning g‘oyaviy xususiyatlarini ochishda, talqin etishda alohida qimmat kasb etadi.

Qadimda tog‘ xudolar makoni bo‘lganligi, payg‘ambarlarning tog‘da Allohdan ahd olib, payg‘ambar sifatida tarbiyalanishi hamda o‘z xalqini yorug‘likka olib chiqishi bilan bog‘liq ma‘lumotlarga duch kelganmiz. Darhaqiqat, diniy-e‘tiqodiy tasavvurlarga ko‘ra, tog‘lar er kurrasining muvozanatini saqlash uchun uni tutib turuvchi qoziq sifatida yaratilgan. Muqaddas Qur‘oni Karimning “Baqara” surasining 63-, 93-oyatlarida Muso alayhissalomning Tur tog‘ida Alloh bilan so‘zlashgani va Tavrotga amal qilish ahdini olgani bayon etiladi. “A‘rof” surasining 143-144-oyatida esa Musoning payg‘ambar bo‘lishga tanlab olingani aytiladi. Mazkur oyatlarda tog‘ning Alloh bilan so‘zlashuvchi, unga ibodat qiluvchi makon hamda Allohning Muso alayhissalomni payg‘ambar sifatida tanlab olib, tarbiyat etuvchi joy ma‘nosi anglashiladi[2, B.-8, 130]

Tog‘ obrazi bilan bog‘liq miflarning poetik transformasiyasi folklor asarlarida, xususan, dostonlarda tog‘ obrazini an‘anaviy, turli ma‘no qatlamlariga ega, serqirra obraz sifatida shakllantirdi. O‘zbek xalq dostonlarida Asqar tog‘i ko‘p uchraydi. Bu obraz bilan bog‘liq badiiy talqinlardan biri uning homiy ruhlar makoni sifatida qaralishidir. O‘zbek xalq dostonlarining barchasida qahramonga homiy kuchlar – eranlar ko‘mak beradi. Eranlarning qahramon tug‘ilishi, tarbiyasi, jasoratlari va butun hayotida muhim rol o‘ynashi dostonlarda mukammal badiiy talqinlar olgan. Xususan, Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi, bolaligi va uylanishi kuylangan dostonlarda bu holatning guvohi bo‘lamiz. “Go‘ro‘g‘li” dostonlarida keluvchi Asqar tog‘ qahramonga tush motivi orqali ayon bo‘ladi, ya‘ni epik qahramon tush yoki bashorat kabi g‘ayrioddiy usullar orqali homiy eranlar manziliga olib boriladi va u erda tarbiyat etiladi. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni[3, B.-117]da G‘o‘ro‘g‘li charchab uxlab yotganda, eranlar uni o‘rab oladi, Bobo Qambar unga kelajakdagi taqdiridan xabar beradi va otini ham shu erdan topajagini bashorat qiladi. G‘o‘ro‘g‘li tushidagi bashorat asosida Afsar tog‘dagi “Sanam chorbog‘” ga boradi. Go‘ro‘g‘li chiltonlar bilan g‘orda uchrashadi. Qahramon hayotidagi eng muhim bosqichlar Asqar tog‘da amalga oshadi. Shunday bosqichlardan biri bo‘lajak qahramonning eranlar tomonidan sinalishidir. Hazrati Xizrning Go‘ro‘g‘lining toyini o‘g‘irlab, eranlar makoniga olib borib qo‘yishi motivi dostonda muhim o‘rin tutadi. Qahramon toyini izlash davomida eranlar sinovidan o‘tadi. Jisman va ma‘nan kamol topishga tayyor holatga keladi. Xizrning Go‘ro‘g‘liga kurash sirlaridan dars berishi aynan alplik tizimining tarkibiy qismiga kiradi. Ya‘ni Go‘ro‘g‘lining jismoniy kamoloti, barcha jang san‘ati sirlarini kosmos

vakillaridan o‘rganganligini va uning tengsiz jangchi ekanligi, bir o‘zi minglab askarlarga teng kelishi, g‘olib bo‘lishining siri ana shu eranlar tomonidan o‘rgatilgan jang sirlariga bog‘liq ekanligini badiiy ifoda etadi. Asqar tog‘dagi chiltonlar g‘orida qirq chiltonning har biri Go‘ro‘g‘liga hayot darsidan saboq berib o‘tadi. Nafaqat o‘zbek folklori, balki dunyo xalqlari folklorida turg‘un an‘ana ko‘rinishiga kelgan tog‘ obrazi kosmik tartibning barcha elementlari va qurilmasini o‘zida mujassam etuvchi dunyo modeli sifatida qabul qilingan.

Dostonlarda tog‘ bilan bog‘liq bo‘lgan yana bir ko‘rinish bu Balo tog‘idir. Balo tog‘i “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarida faol tilga olinuvchi nomdor tog‘lardan biri va dostonlarda chegara – qahramonni o‘zga olam, yor diyori bilan bog‘lovchi ko‘prik vazifasini o‘taydi. Epik qahramon yor diyori, begona olam haqida dev yoki pari kabi personajlardan xabar topadi. Go‘ro‘g‘lining yurti va dev-parilar makoniga epik qahramon, avvalo, ushbu chegaradan o‘tib borishi mumkin. “Yunus pari” dostonida Balo tog‘i va unda yashovchi dev Go‘ro‘g‘lining Yunus parini olib kelishi yo‘lida ilk duch kelgan epik to‘siq hamda qahramon makoniga qarama-qarshi hududning boshlanish nuqtasi sifatida keladi. Epik qahramon Balo tog‘idagi devlarni aql-idroki bilan engib o‘tadi va ularni o‘ziga bo‘ysundirib oladi. Engilgan mifologik obrazlar – devlar qahramonga o‘zga olamlarga borib kelishida va maqsadiga erishishida ko‘mak beradilar. Dostonda Balo tog‘i sinov motivi, shart motivi, o‘zga yurtga safar motivi bilan bir syujet halqasida keladi va epik qahramonning kuch-qudrati, aql-idroki, g‘ayrioddiy inson ekanligini ko‘rsatishga xizmat qiladi.

“Go‘ro‘g‘li” turkumiga tegishli Tilsimli tog‘larning eng yorqin misollarini Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li kuylagan “Malika Ayyor” va “Mashriqo” dostonlarida uchratamiz. “Malika Ayyor” dostonida Malika Ayyor hududini Ko‘klamtog‘ to‘sib turadi. Tilsimli tog‘lar ham xronotop shakli sifatida qahramonni o‘zga olam, erosti dunyosiga ko‘chiruvchi transformasiya vazifasini o‘taydi. Tog‘ orqali boriladigan erosti mamlakatida faqat epik qahramonlarga harakatlana oladi. “Mashriqo” dostonida esa Maston momo ta‘riflagan g‘aroyib tog‘ er va osmon o‘rtasida joylashgan bo‘lib, tog‘ mexanizmini boshqarib turuvchi devning g‘orda yashashi bu makon tasvirining ham an‘anaviy to‘siq, qahramon yashovchi makon bilan unga raqib kuchlar hududi o‘rtasidagi chegara modeliga uyg‘un kelishini bildiradi.

Bundan tashqari, “Alibek va Bolibek” dostonida kelgan Bolhasrat tog‘ining ta‘rifi nafaqat ushbu dostonning, balki o‘zbek eposi namunalari orasida noyob badiiy tasvir sifatida alohida ajralib turadi:

Sensan tog‘larning sultoni,  
Ko‘rgansan olam zamoni,  
Uch yuz oltmish bir makoni,  
Yashildir tug‘laring sening[4, B.-186]

Folklor asarlari tarkibida keluvchi epik tog‘larning, deyarli, barchasida uch yuz oltmish yoki uch yuz oltmish bir makon, dara so‘z birikmalari an’anaviy sifatlovchi bo‘lib keladi va bu sifat muqaddas sanaluvchi tog‘larga nisbatan qo‘llaniladi. Yashil tug‘ iborasi esa bu makonlarning har birida muqaddas qadamjolar borligini anglatadi. Dostonlarda Bolhasrat tog‘i shunday muqaddas tog‘ sifatida ta’riflangan. To qiyomatgacha turadi deb bildirilgan Bolhasrat tog‘ining Seling, Ko‘hista deb nomlanuvchi bo‘limlari bor. Barcha muqaddas tog‘lar kabi Bolhasrat tog‘i ham buzruklarning qadamgohi, jami azizlar arvohi qo‘nim topgan joy, Alidek ulug‘lar ruhi yodlanuvchi maskandir. Bu manzilning giyohi, havosi, suvlari shifo, tanga darmon, quvvat beruvchi xususiyatga ega. Bu xil manzillarda xos kishilar, eranlar – chiltonlar uchrashib, suhbat quradi. Bolhasrat tog‘i ham dostonlarda chiltonlar makoni, duolar ijobat bo‘luvchi joy sifatida talqin etiladi.

O‘zbek xalq dostonlarida tog‘dagi g‘or devlar qo‘nim topgan joy sifatida ham talqin qilinadi. “Malika ayyor”, “Nurali”, “Mashriqo” “Og‘a Yunusning olib qochilishi” va boshqa dostonlarda tasvirlangan ko‘pchilik dev obrazlari tog‘dagi g‘orda yashaydi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan tahlillar asosida biz quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin. Ya’ni, dunyo xalqlarining tog‘ bilan bog‘liq e’tiqodi, marosim va odatlari, tafakkuridagi semantik va funksional o‘xshashliklar etnik ta’sir yoki aloqadorlikdan tashqari e’tiqodiy tasavvurlardagi tarixiy-tadrijiy rivojlanishning bir xilligi bilan belgilanadi.

O‘zbek folklorida ham tog‘ obrazining genetik asoslari ajdodlarimizda shakllangan mif va mifologik dunyoqarash, magik inonchlar va e’tiqodiy qarashlar bilan bog‘lanadi. Bu esa o‘z navbatida folklor asarlarida tog‘ obrazining an’anaviy va serqirra obraz sifatida shakllanishiga asos bo‘lgan. Xalq dostonlaridagi tog‘ devlar qo‘nim topgan joy sifatida ham talqin etilgan. Bunday talqinga ega epizodlarda tog‘ qahramonni o‘zga olam, yor diyori bilan bog‘lovchi ko‘prik vazifasini o‘taydi. Dostonlarning ajralmas bir qismiga aylangan tog‘ obrazi asarlarda serqirra ma’nolarga egaligi bilan ajralib turadi. Bu esa folklor asarlarining badiiy qimmatini yanada oshirishga hissa qo‘shib kelmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ислом Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008. – 30 б.
2. Qur’oni karim. O‘zbekcha izohli tarjima / Tarjima va izohlar muallifi: Alouddin Mansur. – Toshkent: Cho‘lpon, 1992. – B. 8 –130.
3. Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi. Doston. Aytuvchi: Muhammad Jomrod o‘g‘li Po‘lkan. Nashrga tayyorlovchi: M.Murodov. – Toshkent: Badiiy adabiyot, 1967. – B. 117.
4. Alibek va Bolibek / Bulbul taronalari. 5-jild. Dostonlar va termalar. – Toshkent: Fan, 1973. – B. 186.